

AHOLINING ZAIF QATLAMLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA TURLI MANBALARDAN YO‘NALTIRILAYOTGAN BYUDJET MABLAG‘LARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Obloqulov G‘ayrat Bahodir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
gayrat1997@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘lari samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda butun dunyoda ijtimoiy himoya xarajatlarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Tezisdan byudjet mablag‘lari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, mablag‘larni to‘g‘ri yo‘naltirish muammolari, moliyalashtirish manbalarining barqarorligi, monitoring tizimlarining nomukammalligi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, byudjet mablag‘lari samaradorligi, zaif qatlamlar, fiskal multiplikator, daromadlarni manzillash, ijtimoiy transfertlar.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi asosida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishi aholining daromadlarini oshirish va ehtiyojmandlarga manzilli yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Mazkur bo‘limda O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining hozirgi holati, byudjet mablag‘larining samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va erishilgan natijalar tahlil qilinadi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Keng qamrovli va inklyuziv ijtimoiy himoya tizimi nafaqat qashshoqlik va tengsizlikni kamaytiradi, balki iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) “Jahon ijtimoiy himoya hisoboti 2024–2026” ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil holatida dunyo aholisining atigi 52,4 foizi kamida bitta ijtimoiy himoya turi bilan qamrab olingan. Hududlar kesimida katta tafovutlar kuzatiladi: Yevropa va Markaziy Osiyoda qamrov darajasi 85,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Afrikada bu ko‘rsatkich atigi 19,1 foizni tashkil etadi. Mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining o‘rtacha 12,9 foizini ijtimoiy himoyaga yo‘naltiradi, biroq daromadi yuqori mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 16,2 foizga yetadi, daromadi past mamlakatlarda esa atigi 0,8 foizni tashkil etadi.

COVID-19 pandemiyasi inklyuziv ijtimoiy himoya tizimlarining muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy himoya xarajatlari nafaqat qashshoqlik va tengsizlik o‘shishini yumshatgan, balki muhim kontrtsiklik rol o‘ynagan. Yevropa Ittifoqida pandemiya davrida ixtiyoriy siyosat choralari bo‘lmaganida uy xo‘jaliklari daromadi 5,9 foizga kamayishi mumkin edi, ammo ko‘rilgan choralar tufayli haqiqiy pasayish 3,6 foizni tashkil etdi. Xususan, 42 mamlakat ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoyaga ajratilgan har 1 dollar o‘rtacha 1,84 dollar iqtisodiy samara beradi.

Ijtimoiy himoya xarajatlarining iqtisodiy samaradorligini tushunish uchun fiskal multiplikator tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda ijtimoiy himoya xarajatlarining mikro va makroiqtisodiy qaytimlarini baholash usullari tahlil

qilingan. Tadqiqot xulosalariga ko‘ra, ijtimoiy himoya xarajatlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab bo‘lib, aniq va moslashtirilgan o‘lchash usullarini qo‘llashni talab etadi. Shuningdek, turli funksiyalar, mamlakatlar va vaqt oralig‘ida ta’sirlarning xilma-xilligini hisobga olish zarur.

2026-yil 29-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 35-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Ijtimoiy reyestrni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi nizolarni hal qilish bo‘yicha apellyatsiya kengashlari to‘g‘risidagi nizom va Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarga ko‘rsatiladigan davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari ro‘yxati tasdiqlandi.

1-jadval

Ijtimoiy reyestr tizimining asosiy afzalliklari

Yo‘nalish	Tavsif
Manzillilik	Mablag‘lar aynan muhtoj oilalarga yo‘naltiriladi
Shaffoflik	Reyestr orqali barcha ma'lumotlar ochiq va shaffof
Raqamlashtirish	Elektron tizim orqali byurokratik to‘siqlar kamayadi
Uzluksizlik	To‘lovlar uzluksiz davom ettiriladi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.01.2026 yildagi 35-son qarori asosida muallif ishlanmasi

2026-yil 1-fevralga qadar Ijtimoiy himoya milliy agentligi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi hamda Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarni Ijtimoiy reyestrga o‘tkazilishini va to‘lovlar uzluksiz davom ettirilishini ta’minlashi belgilangan.

Ijtimoiy himoya mablag‘lari samaradorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri – bu mablag‘larning aynan muhtoj qatlamlarga yetib borishidir. Jahon bankining ASPIRE ma’lumotlar bazasiga ko‘ra, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlari dasturlarining yetariligi transfertlarining umumiy summasi benefitsiarlarning umumiy daromadidagi ulushi bilan o‘lchanadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatlar kesimida sezilarli farq qiladi va samaradorlikni baholashda muhim mezon hisoblanadi.

Xulosa. O‘zbekistonda aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘lari samaradorligini oshirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi, Ijtimoiy reyestr tizimining joriy qilinishi, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish mexanizmlarining qo‘llanilishi, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi – bularning barchasi byudjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishiga xizmat qilmoqda.

2026-yil davlat byudjetida Ijtimoiy himoya milliy agentligiga 22,42 trln so‘m mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilga nisbatan 6,1 foizga ko‘pdir. Shuningdek, davlat byudjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy himoya ulushini 2030-yilga borib 7,0 foizga yetkazish maqsad qilingan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy himoya xarajatlari nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali bo‘lib, o‘rtacha 1,84 dollar multiplikator effektiga ega. O‘zbekistonda ham

ushbu multiplikator effektini oshirish, mablag'larning aynan muhtojlarga yetib borishini ta'minlash va ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirish bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmogda.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy himoya tizimi "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan holda, aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya bilan qamrab olish va ularga munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2025). «Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-258-son Farmoni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2026). "Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarni davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 35-son qarori. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun loyihasi va Byudjetnoma. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi nashriyoti.
5. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy himoya tizimi. (2025). Yuz.uz axborot agentligi. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-ijtimoiy-himoya-tizimi>
6. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) (2024). Jahon ijtimoiy himoya hisoboti 2024–2026: Iqlim bo'yicha harakatlar va adolatli o'tish uchun universal ijtimoiy himoya. Jeneva: XMT nashriyoti. <https://www.ilo.org/publications/flagship-reports/world-social-protection-report-2024-26>
7. Egamov, B., & Najmiddinov, F. N. (2026). O'zbekiston byudjet tizimida byudjet xarajatlari samaradorligini baholashning zamonaviy yondashuvlari. Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 4(1), 315–321.